




CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*2022- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, dastlabki
ma'lumot*




**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel: 76-225-65-74**


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI



Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

O'sish sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Uyushmagan savdo

Tarkibiy qism, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari



Uyushmagan savdo

Yirik korxonalar

Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **2 371,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **8,8 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **176,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **167,5 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **1 732,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **105,2 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **461,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **108,4 %**) tashkil etdi.

Uyushmagan savdo, mlrd. so'm



Jami Uyushmagan savdo

461,9


100 %

HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm



Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **2 371,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan **108,8** % ni tashkil etdi. Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida **92,6** % kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga va **7,4** % yirik korxonalar hissasiga to'g'ri keldi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani 23,7 % ulush bilan 562,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Bandixon tumani 1,2 % ulush bilan 27,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.


CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan viloyatning Termiz sh. (132,6 %), Termiz (110,1 %), Qumqo'rg'on (107,6 %) va Jarqo'rg'on (107,3 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatilib, eng yuqori ko'rsatkich Termiz sh. qayd etildi.

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	2371,4	108,8	176,6	167,5	2194,8	105,8
Termiz sh.	477,4	123,8	118,3	282,1	359,1	104,5
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	93,4	112,9	1,3	42,4	92,1	115,5
Angor	106,3	102,8	2,3	100,8	104,0	102,8
Bandixon	27,3	118,5	0,5	91,4	26,8	119,2
Boysun	100,7	100,6	0,8	34,7	99,9	102,1
Muzrabot	99,5	105,5	1,0	79,7	98,5	105,9
Denov	562,0	103,9	24,7	110,0	537,3	103,7
Jarqo'rg'on	126,4	115,2	4,9	88,3	121,5	116,6
Qumqo'rg'on	105,2	113,9	1,4	50,0	103,8	115,9
Qiziriq	98,4	108,1	1,8	84,2	96,6	108,7
Sariosiyo	84,3	88,3	1,4	28,4	82,9	91,6
Termiz	50,4	112,7	3,5	113,7	46,9	112,6
Uzun	100,0	117,6	2,6	170,8	97,4	116,6
Sherobod	127,6	102,3	5,0	116,1	122,6	101,8
Sho'rchi	212,5	103,1	7,1	97,6	205,4	103,3


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **67,5 %** ga o'sdi va **176,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,4 %** ulushiga to'g'ri keladi.


Eng past ulushga ega hududlar, % da



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **2 194,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **5,8 %** ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,6 %** ni tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foizda

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Boysun (**99,2 %**), Muzrabot (**98,9 %**), Qumqo'rg'on (**98,7%**) va Oltinsoy (**98,6 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **7,4 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (**24,8 %**), Termiz (**7,0 %**), Denov (**4,4 %**) va Sherobod (**3,9 %**) tumanlarda kuzatildi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Yirik korxonalar


AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022- yilning yanvar-fevral oylari holatiga ko'ra, o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **874,4** ming so'mni (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **6,5** % ga oshdi) tashkil etdi.


Hududlar kesimida ma'lumot (ming so'mda)

	Hajm, ming so'm	2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	874,4	106,5
Termiz sh	2 563,8	120,4
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	513,2	110,5
Angor	781,5	100,8
Bandixon	351,8	115,2
Boysun	849,1	98,8
Muzrabot	683,3	103,5
Denov	1 422,5	102,2
Jarqo'rg'on	563,0	112,8
Qumqo'rg'on	436,4	111,6
Qiziriq	835,8	105,8
Sariosiyo	391,3	86,6
Termiz	634,5	110,4
Uzun	563,3	114,3
Sherobod	638,7	100,1
Sho'rchi	986,8	100,8

Eng yuqori hajmga ega hududlar





Eng past hajmga ega hududlar



* Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Termiz sh (**2 563,8** ming so'm), Denov (**1 422,5** ming so'm), va Sho'rchi (**986,8** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-fevral oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **461,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **8,4 %** ga oshdi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **174,4** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **20,4 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **287,5** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **2,2 %**) tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI

	Jami, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	461,9	108,4	174,4	120,4	287,5	102,2
Termiz sh.	17,7	86,2	17,7	86,2		
tumanlar:						
Oltinsoy	35,7	131,3	8,9	119,7	26,8	135,7
Angor	24,3	96,0	13,6	119,0	10,7	77,1
Bandixon	24,1	137,4	2,0	106,0	22,1	141,2
Boysun	31,0	92,8	12,2	109,9	18,8	84,3
Muzrabot	54,5	113,7	15,5	133,0	39,0	107,5
Denov	42,2	89,9	22,6	149,7	19,6	61,5
Jarqo‘rg‘on	32,0	138,6	13,0	134,6	19,0	141,5
Qumqo‘rg‘on	39,3	123,0	14,4	104,6	24,9	136,8
Qiziriq	31,1	124,0	8,8	158,6	22,3	114,2
Sariosiyo	31,3	71,8	10,7	125,2	20,6	58,7
Termiz	17,4	128,5	1,8	202,7	15,6	123,3
Uzun	29,5	173,7	13,6	153,2	15,9	196,3
Sherobod	16,9	96,4	8,8	84,4	8,1	114,0
Sho‘rchi	34,9	98,6	10,8	133,3	24,1	88,3


2022- yilning yanvar-fevral oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo‘jaligida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **174,4** mlrd. so‘mni, chorva (parranda) bozorlarida **287,5** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

* Xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo‘shmagan holatda


* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2022- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning barcha tumanlarlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **174,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**86,7** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd. so'm



2022- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning barcha tumanlarlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **287,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **210,8** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **68,8** mlrd. so'mni, otlar **5,9** mlrd. so'mni, parrandalar **2,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




2022- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,9 %** ni tashkil etib, **46,5** mlrd. so'mga yetdi va 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **0,1 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **97,2 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	46,5	99,9	1,3	31,1	45,2	106,6
Termiz sh.	16,4	103,0			16,4	103,2
tumanlar:						
Oltinsoy	1,1	109,2			1,1	109,2
Angor	2,0	105,6			2,0	105,6
Bandixon	0,1	111,6			0,1	111,6
Boysun	1,2	113,5			1,2	113,5
Muzrabot	1,2	125,0			1,2	125,0
Denov	8,7	102,8			8,7	102,8
Jarqo'rg'on	1,6	113,8			1,6	113,8
Qumqo'rg'on	1,4	110,7			1,4	110,7
Qiziriq	1,1	106,2			1,1	106,2
Sariosiyo	1,4	27,9			1,4	115,6
Termiz	3,0	109,3	0,2	98,8	2,8	110,0
Uzun	2,3	2,2 m	1,1		1,2	113,7
Sherobod	2,8	115,6			2,8	115,6
Sho'rchi	2,2	105,2			2,2	105,2


ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ulgurji savdo tovar aylanmasi, foizda




Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **387,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **4,8** % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **71,5** mlrd. so'mni (**6,5** % ga ko'payish) tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	387,4	104,8	71,5	93,5	315,9	107,7
Termiz sh.	105,4	102,0	26,7	91,0	78,7	106,4
tumanlar:						
Oltinsoy	10,4	101,3	3,5	85,2	6,9	112,3
Angor	15,0	106,2	0,1	82,0	14,9	106,3
Bandixon	1,5	98,6			1,5	105,5
Boysun	4,4	104,5	0,1	35,8	4,3	111,4
Muzrabot	6,7	93,3	4,9	89,4	1,8	105,8
Denov	123,9	112,1	28,5	118,6	95,4	110,3
Jarqo'rg'on	26,7	89,4	1,4	21,4	25,3	107,5
Qumqo'rg'on	9,6	80,6	2,6	49,9	7,0	103,5
Qiziriq	6,0	95,7			6,0	103,2
Sariosiyo	25,5	104,2	0,8	128,7	24,7	103,5
Termiz	30,6	118,7	2,9	176,3 m	27,7	107,5
Uzun	4,6	106,4			4,6	106,7
Sherobod	8,3	104,3			8,3	106,8
Sho'rchi	8,8	109,0			8,8	111,5

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Denov (**118,6 %**), Sariosiyo (**128,7 %**) va Termiz (**176,3 m**) tumanlarida kuzatildi.